

**ZAMONAVIY KO'CHA YO'L TARMOG'INI OBODONLASHTIRISHDA  
SHAHARSOZLIK USULLARINI RIVOJLANTIRISH URGANCH SHAHRI  
MISOLIDA.**

**Allayorova Dilfuza Maqsud qizi**

Texnika fakulteti Shahar qurilishi transport va aloqa yo'llari 222-guruh magistranti

**Kuryozov Kuryoz Otaboyevich.**

Texnika fanlar nomzodi Dotsent

**Annotatsiya:** Respublikamizning har bir hudud markalarining infratuzilmasi yanada jozibador bo'lishi va yanada chiroy ochib borishiga katta e'tibor berilmoqda. Ushbu maqolada zamonaviy ko'cha yo'l tarmog'ini obodonlashtirishda shaharsozlik usullarini rivojlantirishning Urganch shahri misolidan o'rganib chiqamiz.

**Kalit so'zlar:** Shahar, obodonlashtirish, shahar yo'l-transport tarmoqlari, transport tugunlari, ko'cha va yo'l tarmoqlari, urbanizatsiya.

**РАЗРАБОТКА ГОРОДСКИХ МЕТОДОВ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ  
СОВРЕМЕННОЙ УЛИЧНОЙ ДОРОЖНОЙ СЕТИ НА ПРИМЕРЕ  
ГОРОДА УРГАНЧА.**

**Аннотация:** Большое внимание уделяется тому, чтобы сделать инфраструктуру брендов каждого региона нашей республики более привлекательной и привлекательной. В данной статье мы изучим город Ургенч как пример развития градостроительных методов совершенствования современной уличной сети.

**Ключевые слова:** Город, развитие, городские дорожно-транспортные сети, транспортные узлы, улично-дорожные сети, урбанизация.

**DEVELOPMENT OF URBAN METHODS IN IMPROVEMENT OF  
MODERN STREET ROAD NETWORK AS AN EXAMPLE OF URGANCH  
CITY.**

**Abstract:** Great attention is being paid to making the infrastructure of brands of each region of our republic more attractive and more attractive. In this article, we will study the city of Urganch as an example of the development of urban planning methods in the improvement of the modern street network.

**Key words:** City, development, urban road transport networks, transport nodes, street and road networks, urbanization.

Hozirgi kunda respublikamizda shahar infratuzilmasini yaxshilash, arxitekturasi yangilash, shahar markazlaridagi ko'p qavatli binolarning tashqi va ichki imkoniyatlarini oshirish maqsadida obodonlashtirish, ko'kalamzorlashtirish ishlari olib borilmoqda. Ayniqsa binolar qurilishi, yo'l qurilish ishlari, muhandislik-kommunikatsiyalarini joylashtirish ishlari jadallik bilan amalga oshirilmoqda. Shuningdek Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev 2019 yil 2 oktyabrda yo'l xo'jaligini rivojlantirish va ushbu sohaga investitsiyalarni keng jalb qilish, xalqaro standartlar asosida innovatsion texnologiyalarni joriy etgan holda avtomobil yo'llarini qurish, rekonstruksiya qilish va kapital ta'mirlash haqidagi topshiriqlari belgilab berilgan. 2020-yildan boshlab respublikamizning barcha hududlarda obodonlashtirish va bunyodkorlik ishlari olib borildi va bu ishlar hozirda ham davom etib kelmoqda. Qurilish jarayonlarini olib borishda, barcha qurilish obyektlarini, bino qurilishi, yo'l qurilishi me'yoriy hujjatlar asosida bajarilishiga e'tibor berilishi qurilish jarayonlarining eng muhim omillardan biri hisoblanadi. Bundan asosiy maqsad har bir obyektidan foydalanayotgan aholiga qulayliklar yaratib berish. Har bir qurilayotgan ko'p qavatli binolarga insonlar ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ichimlik suvi, gaz quvurlari, chiqindi suv quvurlari, aloqa kabellari montaj qilinadi. Bir narsaga e'tibor berishimiz kerakki, hozirda barcha ko'p qavatli binolarga olib kelinuvchi muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari (ichimlik suvi, chiqindi quvurlari, aloqa kabellari) barchasi yo'l o'tgan hudud orqali, ko'p holatlarda yo'lning qatnov qismi asosi orqali olib o'tiladi. Bu albatta ijobiy holat hisoblanadi.

Shaharsozlik nuqtai nazaridan shahar deb, ma'lum chegaralangan hududda turar joy, boshqaruv organlari, ishlab chiqarish korxonalari va boshqa binolar, hamda turli korxonalar, ijtimoiy, madaniy, sog'liqni saqlash va boshqa muassasalar jamlangan joyga aytiladi. **Ko'kalamzorlashtirish** — shahar hududida yashil tabiat zonalarini yaratish uchun olib boriladigan ishlar majmui. Yashil zonalar xiyobon va bog'lardan tashkil topadi, mikroiklimni sog'lomlashtiradi, shamol tezligini pasaytiradi, chang va to'zonlarni tutib qoladi, havodagi zararli gaz va tutunlarni yutadi, shahardagi shovqinlarni kamaytiradi va shu kabi foydali tomonlarga ega. Ko'kalamzorlashtirish katta [estetik](#) ahamiyatga ega. [Poytaxt](#) va yurtimizning boshqa shaharlaridagi istiqomat qilayotgan aholi soni oshib borayotgani, yirik [sanoat korxonalari](#) yildan yilga ko'proq ishga tushirilishi, shahar ko'chalarida harakatlanayotgan [avtomobillar](#) soni ortib borishi hisobga olinsa, ekologik holatlar alohida e'tibor va mas'uliyat talab qiladi. Shahar [ekologiyasi](#), aholi salomatligi ham bevosita ko'kalamzorlashtirish bilan bog'liq. Atrof-muhit musaffoligini ta'minlashda yashil olamning ahamiyati beqiyos. So'nggi yillarda shaharni qayta qurish, ko'kalamzorlashtirish va [obodonlashtirish](#) ishlari jadal olib borilayotgani

sabab nafaqat poytaxtimizda, balki boshqa viloyat markazlarida ham shaharlarni yashil maydonlarga aylantirish ishlari tadbiiq etilmoqda. Ko'kalamzorlashtirilgan hududlarda havo harorati boshqa hududlarga qaraganda  $16^{\circ}$  salqin bo'lishi, 1 gektar hududdagi o'rmon yiliga 54 tonna chang ushlab qolishi bizga ma'lum. Shaharlar hududida shuningdek, turli-tuman gullar, to 'shama o 'simliklar ham yashil maydonlarni boyitib bormoqda. Transportlarni rivojlantirish nuqtai nazaridan shahar bu - temir yo'l va avtomobil yo'llari, havo va suv transportlari tugunlari joylashgan markazdir. Transport tugunlari hududida yo'lovchilarni va yuklarni harakati va taqsimlanishi jarayonlari sodir buladi. Shahar ko'chalari tarmoqlarining rejasi ishlab chiqarish korxonalarini, turar joy mavzolari, jamoat binolari, vokzallar, pristanlar, shuningdek, shahar tashqarisidagi yo'llarning tutashishlarini joylashtirish bilan belgilanadi. Eski shaharlarning rejalashtirilishi ijtimoiy, topografik va iqlim sharoitlarining ta'sirida tarixan yuzaga kelgan (tarkib topgan). Yangi shaharlarni rejalashtirishda aholi uchun eng yaxshi qulayliklar yaratishdek asosiy tamoyildan kelib chiqiladi. Yangi shaharlarni rejalashtirish, mavjud shaharlarni rivojlantirish va qayta qurish kabi, sanoat, transport aloqalarini joylashtirishni, turar joy mavzolari uchun eng yaroqli uchastkalar tanlashni va yashil massivlar yaratishni har tomonlama o'rganishga asoslanadi. Ishlab chiqarish korxonalarini, muassasalar, vokzallar, pristanlar va jamoat foydalanadigan joylarning joylashuvi haqidagi ma'lumotlarni tahlil qilib, yuk oqimlarining yo'nalishi va miqdori belgilanadi. Birinchi navbatda, eng qisqa yo'nalish bo'yicha asosiy magistrallar loyihalaniadi. Qolgan ko'chalar turar joy mavzolarini sanoat korxonalarini, muassasalar, vokzallar va hokazolar bilan qulay transport aloqasi bilan bog'lash shartiga ko'ra asosiy magistrallarga yordamchi yo'llar tarzida joylashtiriladi. Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, shahar yo'l-transport tarmog'ini rejalashtirishning asosiy maqsad va vazifalari quyidagilardan iborat bo'lishi kerak:

- Transport tarmoqlari iqtisodiyot uchun muhim ahamiyat kasb etib, uning rivojiga xizmat qilishi kerak;
  - Yuklarni va yo'lovchilarni manzilga qisqa muddatlarda elitish masalasi hal etilishi kerak;
  - Transportning va yo'lovchilarning uzluksiz, xavfsiz harakatlanishi uchun zarur imkoniyatlar yaratilishi lozim;
  - Haydovchilar va yo'lovchilarga yetarlicha qulayliklar yaratilishi lozim;
  - Aholining sog'ligi va hayotiga zarar yetkazmaslik;
  - Atrof-muhitga zararni imkon qadar kamaytirish, ekologiyani himoyalash.
- Shaharlarning jadal sur'atlarda rivojlanishi XIX asrda boshlandi. Buning asosiy sabablari ishlab chiqarishning, ilmiy texnik jarayonlarning jadal rivojlanishi va

mexnatni tashkil kilish xususiyatining o'zgarishidir. Bu o'z navbatida qishloq aholisi o'sishini pasayishiga va shahar aholisini o'sishiga olib keldi. Bunday jarayonlarni – urbanizatsiya deb ataladi (fransuzcha urbanization).

Shaharsozlik (shahar qurish) — me'morlikning yirik sohasi; shahar bunyod etish nazariyasi va amaliyoti — aholi yashaydigan hududlar (turar jsoylar)ni loyiha asosida rejalashtirish. Shaharsozlik ijtimoiy-iqtisodiy, sanitariyagigiyena, qurilishtexnika, badiiyme'moriy masalalar majmuini qamrab oladi. Shaharsozlik majmui me'morlik va qurilish bunyodkorligi, jamiyatning ijtimoiy tizimi va ishlab chiqarish kuchlarining taraqqiyot darajasi, madaniyati, tabiiy iqlim sharoitlari va milliy o'ziga xosligi bilan belgilanadi. Sh. o'z navbatida qishloq aholi turar joylarini rejalash, landshaft me'morligi, bog' barpo etish, tumanlarni rejalash, sanoat korxonalari, dam olish mintaqalarini ratsional ravishda joylashtirish, ekologiya masalalari kabi bir necha tarmoqlarga bo'lingan. shahrida turar joylarning nafaqat me'moriybadiiy qiyofasiga, estetik jihatlariga, balki obodonlashtirishga — yo'llar, ayniqsa, avtomobil yo'llarita, infratuzilma (suv, oqava — kanalizatsiya, gaz, elektr va boshqalar muhandislik ta'minotlari)ga katta e'tibor beriladi. shahrida yangi shahar, shaharcha, qishloqlarni qurish, qadimiy shaharlarni muhofaza qilish (rekonstruksiya qilish), me'moriy majmualar (ko'proq turar joy.mavzelari)ni bunyod etish bosh reja asosida amalga oshiriladi, bunda loyihalarni ishlab chiqish (tuzish) muhim o'rin tutadi. Bunday loyihalar buyurtmalar orqali shaharsozlikka ixtisoslashgan ilmiy tekshirish va loyihalash intlarida bajariladi. Toshkentda O'zbekiston shaharsozlik loyihalash va ilmiy tekshirish instituti (O'zLITI), Toshkent Boshtarh loyihalash va ilmiy tekshirish instituti va boshqalar shunga o'xshash intlar faoliyat ko'rsatadi. Mustaqillik davrida O'zbekistonda Sh. har jihatdan rivoj topdi, shaharlarning qiyofasi chiroy ochdi. Tarixiy xotira bilan bog'liq bir qancha yodgorlik majmualar yaratildi: Toshkentdagi O'zbekiston milliy bog'i, Xotira va qadrlash maydoni, Shahidlar xotirasi majmualari; Samarqanddagi Imom Buxoriy yodgorlik majmui, Quvadagi AlFarg'oniy majmui; Buxorodagi Chor Bakr, Bahouddin Naqshband ziyoratgohlarida qayta qurish ishlari olib borildi

Xulosa Shahar yo'l-transport tarmoqlarini rejalashtirishning asosiy maqsadi va vazifalari bu shaharlardagi transport muammolari: ko'cha va yo'l tarmoqlarini kuchli yuklanish bilan ishlashi, shahar yo'llarida transportlarni o'tkazish qobiliyatini pasayishi, aholini avtotransportlardan foydalanishida ko'p vaqt sarflashi hamda shahar hududida yangi yo'llarni qurish uchun hudud muammolarini o'rganib, tahlil etish hamda shahar yo'llari va ko'chalari tarmog'ini loyihalashda shahar transportining ta'siri, yo'llardan suvni chetlatish tarmoqlarini loyihalash, shahar hududi sharoitlarini hisobga olgan xolda muhandislik yer osti

tarmoqlarini loyihalash, yoʻllarda xavfsiz harakatni tashkil etishdan iboratdir. Yangi shaharlarni rejalashtirishda aholi uchun eng yaxshi qulayliklar yaratishdek asosiy tamoyildan kelib chiqiladi. Yangi shaharlarni rejalashtirish, mavjud shaharlarni rivojlantirish va qayta qurish kabi, sanoat, transport aloqalarini joylashtirishni, turar joy mavzolari uchun eng yaroqli uchastkalar tanlashni va yashil massivlar yaratishni har tomonlama oʻrganishga asoslanadi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. SHNQ 2.05.02-2007 «Avtomobil yoʻllari» Toshkent, 2007 yil.
2. QMQ 3.06.03-97 – Avtomobil yoʻllari
3. Juravlev I.P., Lapshin P.A.Kamenshik / E. Yusupyants. - 2. - Rostov n/a.: Feniks (nashriyot uyi), 2000.- 416 b. - (Boshlangʻich kasb-hunar taʼlimi). - ISBN 5-222-03437-2. GOST 530-2012.
4. Murodjon M., Sanjarbek M., Rahmonjon A. Credo kompleks dasturida avtomobil yoʻllarini avtomatlashgan loyihalash» uzacademia scientific-methodical journal republican number 3 on the subject «Increasing the innovative activity of youth, improving the spirituality and achievements in science» collection of materials august 31, 2020 part 12 pages 39-41 //ISSN (E)–2181–1334.–2020.